

**MEDIATSIYA JARAYONI: MEDIATORNING HUQUQIY
MAQOMI, TARAFLARNING MEDIATSIYA JARAYONIDAGI HUQUQ VA
MAJBURIYATLARI**

Jo'rayev Akbar Abdushukur o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: mazkur tezisdagi tadqiqot ishi zamonaviy huquqiy tizimda muhim o'rin tutgan mediatsiya institutining nazariy va amaliy jihatlarini kompleks tarzda o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi mediatsiya jarayonida ishtirok etuvchi barcha subyektlarning huquqiy maqomini aniqlash, ularning huquq va majburiyatlarini qonunchilik nuqtai nazardan batafsil tahlil qilish va bu sohadagi mavjud muammolarni aniqlashdan iborat.

Kalit so'zlar: mediatsiya, mediator, huquqiy maqom, taraflar, huquq va majburiyatlar, mediativ kelishuv, nizolarni hal etish, betaraf shaxs, muqobil nizolarni hal etish, ixtiyoriylik prinsipi, konfidentsiallik, mediatsiya jarayoni, huquqiy himoya, ijtimoiy yarashuv.

**ПРОЦЕСС МЕДИАЦИИ: ПРАВОВОЙ СТАТУС МЕДИАТОРА,
ПРАВА И ОБЯЗАННОСТИ СТОРОН В ПРОЦЕССЕ МЕДИАЦИИ**

Джураев Акбар Абдушукур угли

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: исследовательская работа в данной диссертации посвящена комплексному изучению теоретических и практических аспектов института медиации, занимающего важное место в современной правовой системе. Основной целью исследования является определение правового статуса всех субъектов, участвующих в процессе медиации, проведение детального анализа их прав и обязанностей с законодательной точки зрения, а также выявление существующих проблем в этой сфере.

***Ключевые слова:** медиация, медиатор, правовой статус, стороны, права и обязанности, медиативное соглашение, разрешение споров, нейтральное лицо, альтернативное разрешение споров, принцип добровольности, конфиденциальность, процесс медиации, правовая защита, социальное примирение.*

**MEDIATION PROCESS: LEGAL STATUS OF THE MEDIATOR,
RIGHTS AND OBLIGATIONS OF THE PARTIES IN THE MEDIATION
PROCESS**

Akbar Jurayev Abdushukur ugli

Master's student of Tashkent State University of Law

***Abstract:** the research work in this thesis is devoted to a comprehensive study of the theoretical and practical aspects of the institution of mediation, which occupies an important place in the modern legal system. The main purpose of the study is to determine the legal status of all subjects participating in the mediation process, to conduct a detailed analysis of their rights and obligations from a legislative point of view, and to identify existing problems in this area.*

***Keywords:** mediation, mediator, legal status, parties, rights and obligations, mediative agreement, dispute resolution, neutral person, alternative dispute resolution, voluntariness principle, confidentiality, mediation process, legal protection, social reconciliation.*

XXI asrning boshlarida jahon huquqiy tizimida nizolarni hal yetishning alternativ usullari (Alternative Dispute Resolution - ADR) tobora keng qo'llanila boshladi. Bu usullar an'anaviy sud tizimiga muqobil va uning to'ldiruvchisi sifatida paydo bo'lgan bo'lib, zamonaviy huquqiy amaliyotda alohida va muhim o'rin

egallaymoqda. Ushbu usullar orasida mediatsiya eng samarali va keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Mediatsiya tarixi qadimiy zamonlarga borib taqaladi. Qadimgi Xitoyda, Gresiya va Rimda nizolarni hal yetishning tinchliksevar usullari mavjud bo'lgan. Zamonaviy mediatsiya instituti esa 1960-yillarda AQSHda paydo bo'lgan bo'lib, keyinchalik Yevropa mamlakatlari, Kanada, Avstraliya va boshqa mamlakatlarda keng tarqaldi. Bugungi kunda mediatsiya xalqaro huquqda mustahkam o'rin egallagan va UNCITRAL, Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Jahon amaliyotida mediatsiya sudgacha va sudlik jarayonidan tashqarida nizolarni hal yetishning samarali, tez va iqtisodiy jihatdan tejamli usuli sifatida e'tirof yetilmoqda. Mediatsiyaning asosiy afzalliklari qatoriga tezkorlik, arzon yechim topishlik, konfidensiallik, taraflarning ixtiyoriy ishtiroki, kelajakdagi munosabatlarni saqlab qolish imkoni, mukamal yechimlar topish ehtimoli kabi jihatlar kiradi. AQSHda har yili 2 million dan ortiq ish mediatsiya orqali hal yetilsa, Yevropa mamlakatlarida bu raqam tobora oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida mediatsiya institutining rivojlanishi mamlakatimizning huquqiy tizimini zamonaviylashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonining muhim qismi hisoblanadi. 2018 yil 3 iyulda qabul qilingan "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-482-son)¹ bilan ushbu institut rasmiy huquqiy asos oldi. Bu qonun mediatsiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, mediatsiya jarayonining asosiy prinsiplarini belgilash va ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarini aniqlash maqsadida qabul qilingan. Qonunning qabul

¹ O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni, 2018 yil 3 iyul, O'RQ-482-son <https://lex.uz/docs/-3805227>.

qilinishiga olib kelgan ob'ektiv sabablar qatorida sudlarning yuklanganligi, sud xarajatlarining yuqoriligi, sudlov jarayonining davomiyligi, ayrim kategoriyadagi ishlarda taraflar o'rtasidagi munosabatlarni saqlab qolish zarurligi kabi omillar mavjud. Shuningdek, 2020 yilda esa Prezident qarori (PQ-4754)² bilan mediatorlar institutini kuchaytirish hamda nizolarni muhokama qiluvchi alternativ mexanizmlarni kengaytirish choralari belgilandi. Mazkur qarorda jismoniy va yuridik shaxslar huquqlarini himoya qilish, nizolarni hal etishning muqobil imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek sudlarda ish hajmini qisqartirish maqsadida mediatsiya instituti, hakamlik sudlari va xalqaro arbitrajlarining roli juda muhimligi ta'kidlangan. Masalan, qarorda "nizolarni hal qilishning muqobil imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, sudlarda ish hajmini maqbullashtirishda mediatsiya instituti, hakamlik sudlari va xalqaro arbitrajlarining rolini tubdan oshirish" zarurligi qayd etilgan. Ushbu qaror mediatsiya institutini rivojlantirishga qarashtirilgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgiladi. 2021 yil 21 aprelda qabul qilingan "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-683-son)³ esa mediatsiya institutini yanada takomillashtirishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi. Ushbu o'zgartirishlar mediatsiya jarayonining samaradorligini oshirish, ishtirokchilarning huquqlarini kuchaytirish va amaliy qo'llanilishini kengaytirish maqsadlariga xizmat qiladi. Qonunda mediatsiyaning asosiy prinsiplari — maxfiylik, ixtiyoriylik, taraflarning hamkorligi va teng huquqliligi, mediatorning mustaqilligi va xolisligi

² "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.06.2020 yildagi PQ-4754-son <https://lex.uz/docs/-4859436>.

³ O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 21.04.2021 yildagi O'RQ-683-son <https://lex.uz/docs/-5388561>.

aniq belgilangan. Demak, O'zbekistonda mediator institutini takomillashtirishga davlat darajasida katta e'tibor berilmoqda.

Mediatsiya jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan unda ishtirok yetuvchilarning huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlarining aniq belgilanishiga bog'liq. Mediatorning byetaraf mavqei, kasbiy mustaqilligi va mas'uliyati, taraflarning ixtiyoriy ishtiroki va tenghuquqliligi, jarayonning konfidensialligi va ochiqligi kabi asosiy prinsiplar huquqiy jihatdan mustahkam kafolatlar talab yetadi. Bu prinsiplarning huquqiy mustahkamligi mediatsiya institutining ishonchliligi va samaradorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mediatsiya jarayonida ishtirok yetuvchilarning huquqiy maqomi masalasi bir necha jihatdan muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, bu masala mediatsiya jarayonining huquqiy tabiatini aniqlashga imkon beradi. Ikkinchidan, ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash mediatsiya jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Uchinchidan, huquqiy kafolatlar mavjudligi mediatsiya institutiga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Mediatsiya jarayonida to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etuvchi shaxslar — ya'ni nizo taraflari va mediator, mediatsiyaning asosiy ishtirokchilari hisoblanadi. Shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan holatlarda, taraflarning vakillari, maslahatchilari yoki boshqa ishonchli shaxslari ham jarayonda ishtirok etishi mumkin.

Mediatorning huquqiy maqomi

O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, mediator — tomonlar tomonidan kelishuv bilan jalb qilinadigan shaxs. Mediatorning faoliyati ikki asosda amalga oshirilishi mumkin: professional yoki noprofessional. Professional mediator bo'lish uchun shaxs Adliya vazirligi tasdiqlagan kursdan o'tishi va Professional mediatorlar

reyestriga kiritilishi kerak. Professional mediatorlar reyestri O'zbekiston Respublikasining territorial tuzilishiga mos ravishda yuritiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, barcha viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari o'z hududlaridagi professional mediatorlarning reyestrini yuritadi. Bu tarqoq tizim mahalliy darajada mediatorlar bilan ishlashni osonlashtiradi va fuqarolarning professional mediatorlarga murojaat qilishini sodda qiladi. Reyestriga kiritilgan ma'lumotlarning ommaviy bo'lishi uchun ushbu reyestr har bir adliya boshqarmasining rasmiy veb-saytida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida ham joylashtiriladi. Bu taraflarning o'zlari uchun mos professional mediatorni tanlash imkoniyatini beradi.

Noprofessional mediator esa 25 yoshga to'lgan va bu faoliyatni bajarishga rozilik bildirgan shaxs bo'lishi mumkin. Shuningdek, qonun bilan qator shaxslarga mediator bo'lish ta'qiqlangan. Masalan, davlat vazifalarini bajarish uchun vakolat berilgan yoki unga tenglashtirilgan, bundan notariuslar mustasno, muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganligi to'g'risida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjud bo'lgan, sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan va o'ziga nisbatan jinoiy ta'qib amalga oshirilayotgan shaxslar mediator bo'la olmaydilar. Mediatorning faoliyati tadbirkorlik hisoblanmaydi, ya'ni u o'z faoliyati uchun maxsus lisenziyaga ega bo'lmasligi mumkin. Mediator qonuniy jihatdan mustaqil va xolis bo'lishi shart. Qonun doirasida «mediatorning mustaqilligi va xolisligi prinsipi» ta'kidlangan. Bu ta'bir taraflar tomonidan mediatsiya jarayonida mediatorga bir tomonlama ta'sir o'tkazilishi mumkin emasligini anglatadi. Mediator har ikki tarafni adolatli qoidalar asosida qo'llab-quvvatlashi, ularga teng ishtirok imkoniyati yaratishi kerak.

Mediatorning vakolatlari va majburiyatlari ham Qonunda aniq belgilangan. Quyida ularning asosiy jihatlari keltiriladi:

Mediatorning huquqlari

Mediator mediatsiya jarayonini to'liq va samarali amalga oshirish maqsadida keng ko'lamli huquqlarga ega. Birinchi navbatda, mediator mediatsiya tartib-taomilini olib borish davomida nizoli taraflar bilan turli shakllarda ishlash huquqiga ega. Bu degani, mediator bir vaqtning o'zida barcha taraflar ishtirokida umumiy yig'ilishlar o'tkazishi mumkin, shu bilan birga har bir taraf bilan alohida-alohida maxfiy uchrashuvlar ham tashkil eta oladi. Bunday moslashuvchan yondashuv mediatorga nizoning murakkab tomonlarini chuqurroq tushunish va har bir tarafning haqiqiy ehtiyojlari hamda manfaatlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Mediator, shuningdek, nizoni hal etish bo'yicha professional tavsiyalar berish huquqiga ega. Bu tavsiyalar og'zaki yoki yozma shaklda berilishi mumkin va taraflarning konkret vaziyatiga moslashtirilgan bo'ladi. Mediator o'zining tajribasi va bilimlariga asoslanib, nizoni hal etishning eng maqbul yo'llarini tavsiya qilishi, muqobil yechimlarni taklif etishi mumkin.

Moliyaviy jihatdan mediator o'zining professional xizmatlarini ko'rsatgani uchun adolatli haq to'lashni talab qilish huquqiga ega. Bu nafaqat mediatsiya jarayoni uchun to'lanadigan asosiy haq, balki mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish bilan bog'liq barcha xarajatlarning qoplanishini ham o'z ichiga oladi. Bunga transport xarajatlari, hujjatlarni tayyorlash, uchrashuvlar uchun joy ijarasi va boshqa tegishli xarajatlar kiradi.

Mediatorning majburiyatlari

Mediatorning eng muhim majburiyatlaridan biri mediatsiya jarayoni boshlanishidan oldin taraflarga to'liq va tushunarli ma'lumot berish hisoblanadi. Mediator har bir tarafga mediatsiyaning asosiy maqsadini, jarayonning qanday amalga oshirilishini, kutilayotgan natijalarni va har bir tarafning ega bo'lgan huquq va majburiyatlarini batafsil tushuntirib berishi shart. Bu taraflarning mediatsiya jarayoniga ongli ravishda kirishishini ta'minlaydi.

Mediatsiya jarayoni davomida mediator faqat taraflarning to'liq roziligi bilan harakat qilishi majburiyatida. Bu degani, har qanday qaror qabul qilish, uchrashuvlar o'tkazish, ma'lumot almashish yoki boshqa muhim harakatlarni amalga oshirishdan oldin mediator barcha taraflardan rozilik olishi kerak. Bu prinsip mediatsiyaning ixtiyoriy tabiatini ta'minlaydi va hech kim majburlanmasligini kafolatlaydi.

Mediator nizoni hal etish jarayonida faqat qonuniy vositalar va usullardan foydalanishi majburiyatida. Mediator taraflarni o'zaro maqbul kelishuvga erishishga ishontirishda har qanday bosim o'tkazish, tahdid qilish yoki noqulay usullardan foydalanishi mumkin emas. Mediator faqat professional mahorat, ijodiy yondashuv va konstruktiv muloqot orqali taraflarni kelishuvga olib kelishga harakat qilishi kerak.

Xolislik va mustaqillik mediatorning eng muhim majburiyatlaridan biridir. Agar mediatorning mustaqilligi yoki xolisligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday holatlar mavjud bo'lsa yoki mediatsiya jarayoni davomida paydo bo'lsa, mediator bu haqda taraflarga darhol ma'lum qilishi shart. Bu manfaatlar to'qnashuvi, shaxsiy munosabatlar, moliyaviy bog'liqlik yoki boshqa har qanday omillar bo'lishi mumkin.

Mediatorning javobgarligi

Mediator o'zining professional faoliyati natijasida yetkazilgan zarar uchun to'liq javobgar hisoblanadi. Agar mediator o'zining majburiyatlarini buzsa, noto'g'ri harakat qilsa yoki g'aflat qilsa va bu natijada taraflarga zarar yetkazilsa, mediator qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi. Bu javobgarlik moddiy zarar, ma'naviy zarar yoki boshqa salbiy oqibatlarni qoplashni o'z ichiga olishi mumkin.

Mediatsiya jarayoni ikki yoki undan ortiq taraflar o'rtasida yuz beradi hamda bitta yoki bir nechta mediator ishtirokida amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, har bir taraf mediatsiya jarayonida bevosita shaxsan ishtirok etishi yoki qonunchilikda belgilangan tartibda o'z vakili orqali ishtirok etishi mumkin. Bu holat ayniqsa yuridik shaxslar yoki noto'liq huquqli jismoniy shaxslar uchun dolzarb hisoblanadi.

Mediatsiya – bu nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishga xizmat qiluvchi alternativ usul bo'lib, u ikki yoki undan ortiq taraflar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bitta yoki bir nechta mediator ishtirokida bartaraf etishga imkon beradi. Mediatsiya jarayonining asosiy xususiyatlaridan biri uning ixtiyoriyligi va taraflarning teng huquqliligidir. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni mediatsiyada ishtirok etuvchi taraflarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilab beradi, bu esa jarayonning shaffof va adolatli o'tishini ta'minlaydi. Mediatsiya jarayonida taraflar bevosita o'zlari ishtirok etishi yoki qonunchilikda belgilangan tartibda o'z vakillari orqali qatnashishi mumkin. Bu imkoniyat ayniqsa yuridik shaxslar, noto'liq huquq qobiliyatiga ega jismoniy shaxslar (masalan, voyaga yetmaganlar) yoki o'z manfaatlarini mustaqil ravishda

himoya qila olmaydigan shaxslar uchun muhimdir. Vakil orqali ishtirok etish taraflarga professional yuridik yordamdan foydalanish va o'z pozitsiyalarini yanada samarali himoya qilish imkonini beradi. Masalan, tijorat nizolarida yuridik shaxslar ko'pincha advokatlar yoki kompaniya yuridik xizmat xodimlarini vakil sifatda jalb qiladi.

Taraflarning mediatsiyada ishtirok etishi – shaxsan yoki vakil orqali – ularning erkin xohish-irodasiga asoslanadi. Bu mediatsiyaning asosiy prinsiplaridan biri bo'lgan ixtiyoriylikni ta'minlaydi. Taraflar jarayonning har qanday bosqichida o'z ishtiroklarini davom ettirish yoki undan voz kechish to'g'risida mustaqil ravishda qaror qabul qiladi.

Taraflarning huquqlari

O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi qonuni 11-moddasiga muvofiq, mediatsiya jarayonida ishtirok etuvchi taraflar quyidagi huquqlarga ega:

Mediatorni erkin va ixtiyoriy ravishda tanlash –

Taraflar mediatsiya jarayonida kimning ishtirok etishini o'zlari mustaqil ravishda belgilaydi. Bu huquq ularga mediatorning professional malakasi, tajribasi, neytralligi va boshqa muhim jihatlarini inobatga olib, o'zlariga eng munosib nomzodni tanlash imkonini beradi. Masalan, tijorat nizolarida taraflar iqtisodiy masalalarda ixtisoslashgan mediatorni tanlashi mumkin, oilaviy nizolarda esa oilaviy munosabatlar bo'yicha tajribaga ega mediatorga ustunlik berilishi mumkin.

Tanlangan mediator dan voz kechish –

Taraflar mediatorga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'lsa yoki uning betarafligiga shubha tug'ilsa, undan voz kechish huquqiga ega. Bu mediatsiyaning

betaraflik va mustaqillik prinsiplariga rioya qilinishini ta'minlaydi. Mediatordan voz kechish uchun taraflar o'z sabablarini ko'rsatishi shart emas, bu ularning erkin xohishiga asoslanadi.

Mediatsiya jarayonining istalgan bosqichida unda ishtirok etishdan voz kechish –

Mediatsiya ixtiyoriy jarayon bo'lgani uchun taraflar uning har qanday bosqichida – boshlanishidan, muhokama jarayonida yoki kelishuvga erishishdan oldin – ishtirokdan bosh tortishi mumkin. Bu huquq taraflarni majburan mediatsiyada qoldirishning oldini oladi va ularning mustaqilligini ta'minlaydi. Masalan, agar taraflar kelishuvga erishish imkoni yo'qligini ko'rsalar, ular mediatsiyani to'xtatib, sud yoki boshqa mexanizmlarga murojaat qilishi mumkin.

Mediatsiya jarayonida bevosita shaxsan ishtirok etish yoki vakil orqali qatnashish –

Taraflar mediatsiyada o'zlari shaxsan ishtirok etishi yoki o'z vakili orqali qatnashishni tanlashi mumkin. Vakil orqali ishtirok etish qonunchilikda belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi. Bu huquq yuridik shaxslar, noto'liq huquq qobiliyatiga ega shaxslar va boshqa kategoriyalar uchun muhimdir. Vakillar taraflarning manfaatlarini professional darajada himoya qilishga yordam beradi va mediatsiya jarayonini samaraliroq qiladi. Ushbu huquqlar taraflarning mediatsiya jarayonida erkin va mustaqil ravishda qaror qabul qilishini ta'minlaydi.

Taraflarning majburiyatlari

Mediatsiyada ishtirok etuvchi taraflar faqat huquqlarga ega bo'libgina qolmay, qonunchilikka muvofiq bir qator majburiyatlarni ham o'z zimmasiga oladi.

Bu majburiyatlar mediatsiya jarayonining muvaffaqiyatli o'tishi va kelishuvlarning amalda ijro etilishini ta'minlaydi.

Mediativ kelishuvni bajarish –

Mediatsiya natijasida tuzilgan mediativ kelishuv taraflar uchun yuridik majburiy kuchga ega bo'lib, uning shartlariga muvofiq va belgilangan muddatlarda bajarish taraflarning asosiy majburiyatidir. Mediativ kelishuv O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi qonuni 19-moddasiga muvofiq yozma shaklda tuzilishi va taraflar tomonidan imzolanishi lozim. Agar kelishuv notarial tasdiqdan o'tsa yoki sud tomonidan tasdiqlansa, u ijro varaqasi kuchga ega bo'ladi va majburiy ijro etilishi mumkin. Taraflar kelishuv shartlarini ixtiyoriy bajarishga rozi bo'lmagan taqdirda, boshqa taraf sudga murojaat qilib, uni ijro etishni talab qilishi mumkin.

Samimiylik va hurmatni saqlash –

Mediatsiya jarayonida taraflar xayrli niyatda ishlashi, o'zaro hurmatni saqlashi va mediatorning faoliyatiga to'sqinlik qilmaslik majburiyatiga ega. Bu majburiyat mediatsiyaning hamkorlikka asoslangan tabiatidan kelib chiqadi. Taraflar o'z pozitsiyalarini ochiq bayon qilishi, muhokama jarayonida faol ishtirok etishi va boshqa tarafning manfaatlarini hurmat qilishi kerak. Mediatorga nisbatan to'sqinlik qilish, masalan, uning neytralligini so'roq ostiga olish yoki jarayonni qasddan kechiktirish mediatsiyaning samarasiz yakunlanishiga olib kelishi mumkin.

Qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga rioya qilish –

Taraflar mediatsiya jarayonida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan boshqa talab va majburiyatlarga rioya qilishi shart. Jumladan, mediatsiyaning maxfiylik prinsipiga rioya qilish muhimdir. "Mediatsiya

to'g'risida"gi qonun 8-moddasiga ko'ra, mediatsiyada oshkor qilingan ma'lumotlar taraflarning roziligisiz boshqa shaxslarga yoki sud jarayonlarida ishlatilishi mumkin emas. Taraflar ushbu ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashga va uni faqat mediatsiya maqsadlarida ishlatishga majburdirlar.

Mediatsiya natijasida tuzilgan mediativ kelishuv taraflar uchun yuridik majburiy kuchga ega bo'lib, u qonunchilikka zid bo'lmagan taqdirda ijro etilishi shart. Mediativ kelishuv yozma shaklda tuzilib, taraflar tomonidan imzolanishi lozim. Agar kelishuv notarial tarzda tasdiqlansa yoki sud tomonidan tasdiqlansa, u ijro varaqasi kuchga ega bo'lib, majburiy ijro etilishi mumkin. Masalan, agar taraflar oilaviy nizo bo'yicha mediatsiya orqali aliment to'lash to'g'risida kelishuvga erishsa va bu kelishuv sud tomonidan tasdiqlansa, unda aliment to'lovlari majburiy ravishda amalga oshiriladi.

Agar mediativ kelishuvda belgilangan shartlar buzilsa, taraflar mediatsiyadan tashqaridagi huquqiy mexanizmlarga murojaat qilish huquqiga ega. Jumladan, ular sudga murojaat qilib, kelishuvning ijro etilishini talab qilishi yoki nizoni arbitraj yoki boshqa usullar orqali hal qilishi mumkin. Bu mediatsiyaning samaradorligini va kelishuvlarning ijro qilinishini ta'minlaydi.

Mediatsiyaning xalqaro amaliyotida taraflarning huquq va majburiyatlari

Xalqaro mediatsiya amaliyotida taraflarning huquq va majburiyatlari ko'p jihatdan O'zbekiston qonunchiligida belgilangan prinsiplarga o'xshashdir, lekin ular global standartlar va xalqaro shartnomalarga asoslanadi. Mediatsiyaning xalqaro miqyosda rivojlanishi BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan normalar, xususan, BMTning Xalqaro tijorat mediatsiyasi to'g'risidagi

Model qonuni (2002 yilda qabul qilingan, 2018 yilda o'zgartirilgan)⁴ taraflarning ixtiyoriylik, maxfiylik va mediatori tanglash huquqlarini ta'kidlaydi. Shuningdek, Singapur Konvensiyasi (2018)⁵ mediativ kelishuvlarning xalqaro miqyosda ijro etilishini ta'minlaydi, bu esa taraflarning kelishuv shartlariga rioya qilish majburiyatini kuchaytiradi. Ushbu hujjatlar mediatsiya jarayonida taraflarning asosiy huquq va majburiyatlarini belgilab, uning samaradorligi va adolatligini ta'minlaydi.

Xalqaro mediatsiya amaliyotida taraflar quyidagi asosiy **huquqlarga** ega:

Ixtiyoriylik –

Mediatsiya jarayonida ishtirok etish taraflarning erkin xohish-irodasiga asoslanadi. Taraflar mediatsiyaga qatnashish yoki undan voz kechish to'g'risida mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. BMTning Xalqaro tijorat mediatsiyasi to'g'risidagi model qonuni 3-moddasiga muvofiq, taraflar jarayonning har qanday bosqichida mediatsiyani to'xtatish huquqiga ega. Bu prinsip mediatsiyani majburiy sud yoki arbitraj jarayonlaridan farq qiladi va taraflarning mustaqilligini ta'minlaydi.

Mediatsiya jarayonining maxfiyligi –

Mediatsiya jarayonida oshkor qilingan ma'lumotlar maxfiy bo'lib qoladi va taraflarning rozilgisiz boshqa shaxslarga yoki sud jarayonlarida ishlatilishi mumkin emas. Maxfiylik mediatsiyaning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, taraflarga ochiq muloqot qilish va o'z manfaatlarini erkin bayon qilish imkonini beradi. Model

⁴ UNCITRAL Model Law on International Commercial Mediation and International Settlement Agreements Resulting from Mediation, 2018 https://uncitral.un.org/en/texts/mediation/modellaw/commercial_conciliation/.

⁵ United Nations Convention on International Settlement Agreements Resulting from Mediation (New York, 2018) (the "Singapore Convention on Mediation") https://uncitral.un.org/en/texts/mediation/conventions/international_settlement_agreements/.

qonunning 8-moddasi mediatsiyadagi ma'lumotlarning maxfiyligini kafolatlaydi, bu esa taraflarning ishonchiga xizmat qiladi.

Mediatorni tanlash –

Taraflar mediatorni erkin tanlash huquqiga ega. Ular mediatorning professional malakasi, tajribasi, neytralligi va boshqa muhim jihatlarini inobatga olib, o'zlariga eng munosib nomzodni tanlaydi. Masalan, tijorat nizolarida taraflar sohaga ixtisoslashgan mediatorlarga, oilaviy nizolarda esa munosabatlar bo'yicha tajribaga ega mediatorlarga ustunlik berishi mumkin. Agar taraflar mediatorga ishonchsizlik bildirsa, undan voz kechish va boshqa mediatorni tanlash imkoniyatiga ega.

Teng huquqlarga ega bo'lish –

Taraflar mediatsiya jarayonida teng huquqlarga ega bo'lib, o'z pozitsiyalarini bayon qilish, ma'lumotlarga erishish va kelishuv shartlarini baholashda bir xil imkoniyatlardan foydalanadi. Bu mediatsiyaning adolatlilik prinsipini ta'minlaydi va taraflar o'rtasidagi nomutanosiblikning oldini oladi.

Vakil orqali ishtirok etish –

Taraflar mediatsiyada shaxsan ishtirok etishi yoki o'z vakillari orqali qatnashishi mumkin. Vakil orqali ishtirok qilish ayniqsa yuridik shaxslar, noto'liq huquq qobiliyatiga ega shaxslar yoki murakkab nizolarda professional yordamga muhtoj bo'lgan taraflar uchun muhimdir. Vakillar taraflarning manfaatlarini himoya qilishda yuridik yoki boshqa soha bo'yicha malakaga ega bo'lishi kerak.

Xalqaro mediatsiya amaliyotida taraflar bir qator **majburiyatlarni** o'z zimmasiga oladi, ular jarayonning muvaffaqiyatli o'tishi va kelishuvlarning ijro etilishini ta'minlaydi.

Yaxshi niyatda va o'zaro hamkorlikda ishlash –

Taraflar mediatsiya jarayonida yaxshi niyatda ishlashi va o'zaro hamkorlik qilishi kerak. Bu majburiyat mediatsiyaning hamkorlikka asoslangan tabiatidan kelib chiqadi. Taraflar o'z pozitsiyalarini ochiq bayon qilishi, muhokama jarayonida faol ishtirok etishi va boshqa tarafning manfaatlarini hurmat qilishi lozim. Xayrli niyatda ishlash mediatorga nizoni hal qilishda yordam berish va o'zaro qabul qilinadigan yechim topish imkonini beradi.

Mediatorga to'sqinlik qilmaslik –

Taraflar mediatorning faoliyatiga to'sqinlik qilmasdan, uning neytral shaxs sifatidagi vazifalarini bajarishiga imkon yaratishi kerak. Masalan, mediatorning betarafligini so'roq ostiga olish, jarayonni qasddan kechiktirish yoki muhokamani boshqa yo'nalishga burish mediatsiyaning samarasiz yakunlanishiga olib kelishi mumkin. Model qonunning 6-moddasi mediatorning mustaqilligi va betarafligini ta'kidlaydi, bu esa taraflarning mediatorga hurmat bilan munosabatda bo'lishini talab qiladi.

Mediativ kelishuvni bajarish –

Mediatsiya natijasida tuzilgan kelishuv taraflar uchun majburiy bo'lib, ular uning shartlariga rioya qilishi kerak. Singapur konvensiyasi mediativ kelishuvlarning xalqaro miqyosda ijro etilishini ta'minlaydi, bu esa taraflarning majburiyatlarini kuchaytiradi. Agar taraflar kelishuv shartlarini bajarmasa, boshqa taraf konvensiyaga a'zo davlatlar sudlariga murojaat qilib, kelishuvni majburiy ijro etishni talab qilishi mumkin. Bu tijorat nizolarida, xususan, turli yurisdiksiyalardagi taraflar ishtirokida muhim ahamiyatga ega.

Maxfiylikni saqlash –

Taraflar mediatsiya jarayonida oshkor qilingan ma'lumotlarning maxfiylikni saqlashga majbur. Bu majburiyat mediatsiyaning ochiq va ishonchli muhitda o'tishini ta'minlaydi. Taraflar mediatsiyada muhokama qilingan ma'lumotlarni boshqa maqsadlarda, masalan, sud jarayonlarida ishlatishi mumkin emas, agar boshqacha kelishilmasa. Maxfiylikka rioya qilmaslik mediatsiyaning asosiy prinsiplarini buzish hisoblanadi.

Xalqaro mediatsiya amaliyotida taraflarning huquq va majburiyatlari ixtiyoriylik, maxfiylik, mediatorni tanlash va xayrli niyatda ishlash kabi prinsiplarga asoslanadi. BMTning Xalqaro tijorat mediatsiyasi to'g'risidagi model qonuni va Singapur konvensiyasi taraflarning huquqlarini kafolatlaydi va mediativ kelishuvlarning ijro qilinishini ta'minlaydi. AQSH, Yevropa Ittifoqi va Osiyo davlatlarida mediatsiya tijorat va oilaviy nizolarni hal qilishda keng qo'llaniladi, taraflar esa mediatorning professionalligi va jarayonning shaffofligiga e'tibor beradi. O'zbekiston xalqaro amaliyotdan foydalanib, mediatsiya tizimini yanada rivojlantirish uchun qonunchilik bazasini mustahkamlashi va xalqaro shartnomalarga qo'shilish imkoniyatlarini ko'rib chiqishi mumkin.

Yuqoridagi asoslarga ko'ra, shunday xulosa kelish mumkinki, ushbu tadqiqot ishimiz O'zbekiston Respublikasida mediatsiya jarayonini, xususan, mediatorning huquqiy maqomi va taraflarning mediatsiyadagi huquq va majburiyatlarini atroflicha tahlil qildi. 2018 yil 3 iyulda qabul qilingan "Mediatsiya to'g'risida"gi qonun mamlakatda mediatsiyaning huquqiy asoslarini mustahkamlab, fuqarolik, tijorat, mehnat va oilaviy nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish uchun muhim platforma yaratdi. Ushbu qonun mediatsiyaning asosiy prinsiplari – ixtiyoriylik, maxfiylik, tenglik va mediatorning betarafligini belgilab, taraflarga

o'zaro qabul qilinadigan yechim topish imkonini beradi. Shu bilan birga, qonun mediatorlarning professional va noma'naviy turlarini ajratib, ularning malaka talablari va faoliyat cheklovlarini aniq ko'rsatdi.

Mediatorning huquqiy maqomi tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda professional mediatorlar uchun qat'iy talablar (maxsus tayyorgarlik, reyestrda kirish) joriy etilgan bo'lsa-da, noma'naviy mediatorlarga nisbatan ko'proq yengilliklar mavjud. Bu mediatsiyaning ommalashuviga xizmat qilsa-da, professional mediatorlar sonini ko'paytirish va ularning malakasini oshirish zarur. Taraflarning huquq va majburiyatlariga kelsak, ular mediatorni erkin tanlash, jarayonda shaxsan yoki vakil orqali ishtirok etish, maxfiylik va mediatsiyadan voz kechish kabi keng imkoniyatlarga ega. Shuningdek, xalqaro amaliyot bilan solishtirish O'zbekiston qonunchiligining ko'p jihatdan global standartlarga, xususan, BMTning Xalqaro tijorat mediatsiyasi to'g'risidagi model qonuni va Singapur konvensiyasi bilan mosligini ko'rsatdi.

Zotan shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, tadqiqot natijalari doirasida mediatsiyaning O'zbekistonda rivojlanishi uchun bir qator tavsiyalar ishlab chiqildi. Birinchidan, mediatsiyani targ'ib qilish va jamoatchilik xabardorligini oshirish uchun ommaviy kampaniyalar o'tkazish zarur. Ikkinchidan, professional mediatorlarni tayyorlash tizimini kengaytirish va ular uchun doimiy malaka oshirish kurslarini tashkil qilish muhim. Uchinchidan, sud tizimi bilan mediatsiyaning integratsiyasini kuchaytirish, masalan, sudyalardan mediatsiyaga yo'naltirish amaliyotini joriy qilish orqali nizolarni tezroq hal qilish mumkin. Nihoyat, Singapur konvensiyasi kabi xalqaro shartnomalarga qo'shilish O'zbekistonda mediativ

kelishuvlarning xalqaro miqyosda ijro etilishini ta'minlab, mamlakatning tijorat mediatsiyasidagi mavqeini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, mediatsiya O'zbekistonda adolatga erishishni kengaytirish, sud tizimining yukini kamaytirish va taraflar o'rtasidagi munosabatlarni saqlab qolishda muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish, amaliy mexanizmlarni rivojlantirish va xalqaro tajribadan foydalanishga bog'liq. Mediatsiyaning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarish orqali O'zbekiston nafaqat ichki nizolarni hal qilish tizimini mustahkamlaydi, balki xalqaro hamjamiyatda alternativ nizolarni hal qilish sohasida muhim ishtirokchiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi qonuni, 2018 yil 3 iyul.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. Nizolarni muqobil hal etish mexanizmlarini yanada takomillashtirish to'g'risida (17.06.2020 y., PQ-4754-son)
3. United Nations Commission on International Trade Law (UNCITRAL). Model Law on International Commercial Mediation and International Settlement Agreements Resulting from Mediation, 2002 (amended in 2018).
4. United Nations Convention on International Settlement Agreements Resulting from Mediation (Singapore Convention on Mediation), 2018.

5. European Union Directive 2008/52/EC of the European Parliament and of the Council of 21 May 2008 on certain aspects of mediation in civil and commercial matters.
6. Masadikov, Sherzodbek. "Mediation in Uzbekistan: A Step Towards Alternative Dispute Resolution." Kluwer Mediation Blog, 10 February 2020.
7. Rakhimova, M. "Comparative Analysis of Mediation in Some Foreign Countries and Uzbekistan: Potential Questions and Proposals." JANUS.NET e-journal of International Relations, 2021.
8. Umarov, A. "Prospects for the Development of Mediation in Uzbekistan: Legal and Practical Aspects." DOAJ, 2020.
9. Singapur xalqaro mediatsiya markazi (SIMC) rasmiy veb-sayti: www.simc.com.sg.
10. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy veb-sayti: www.minjust.uz.